

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

JUMANOV BEKTOSH KARIMOVICH

SAYQALIY SHE'RIYATI POETIKASI

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological sciences**

Jumanov Bektosh Karimovich

Sayqaliy she‘riyati poetikasi..... 3

Жуманов Бектош Каримович

Поэтика поэзии Сайкали..... 27

Jumanov Bektosh Karimovich

The Poetics of Sayqali Poetry 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

JUMANOV BEKTOSH KARIMOVICH

SAYQALIY SHE'RIYATI POETIKASI

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4057 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muhiddinov Muslihiddin Qutbiddinovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jumanazarov Umirzoq Abdurazzoqovich
filologiya fanlari doktori, professor

Eshonqulov Husniddin Pirimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:


Qarshi davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "30" aprel soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko'chasi, 15-uy. Tel.: (8366) 239-11-40, (8366) 239-18-92; faks: (0366) 99366 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz.


Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (25 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko'chasi, 15-uy. Tel.: (0366) 66 239-11-40, (0366) 66 239-18-92.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "13" aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil "13" aprel dagi 33 -raqamli reyestr bayonnomasi).




Sh.A. Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rasi, filologiya fanlari doktori, professor


K.A. Qarshiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)


U.U. Qobilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rasi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida mumtoz lirikaning turli janrlarida she'rlar yozib, ishqiy-sarguzasht mazmunidagi hamda diniy-didaktik mohiyat kasb etuvchi dostonlar ijod qilgan shoirlar asarlarini badiiyat tamoyillari asosida ilmiy o'rganishga alohida e'tibor berib kelinadi. Bunday asarlarda o'z e'tiqodiy qarashlariga tayanilgan holda shoir ifodalagan ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ta'limiy qarashlarning badiiyati, shoirning mumtoz poetika tamoyillarini nechog'lik idrok etishidan kelib chiqib yaratgan badiiy kashfiyotlari, noyob adabiy topilmalari doimo sharqshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Dunyo adabiyotshunosligida mumtoz ijodkorlarning badiiy san'atkorlik mahoratini belgilashda shoir yashagan davrining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy voqeiyliigi, asarlarida o'z ifodasini topgan biografik ma'lumotlari, adabiy asarlaridagi e'diqodiy qarashlarining in'ikosi, adabiy an'analarga munosabati, ularni ijodiy davom ettirishi, o'ziga xos uslubi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilib, bu masalalar poetik tamoyillar asosida tadqiq etib kelinmoqda. Bu esa lirik merosi, ishqiy-sarguzasht va diniy-ma'rifiy mavzuda bitilgan dostonlari tadqiqot mavzusi bo'lgan shoirning turli janrlarda she'riy asarlar yozish mahoratini aniqlash, she'riyatining mavzu va obrazlar olamini tavsif va tasniflash, badiiy san'atlardan foydalanish mahoratini ilmiy tadqiq etish nuqtayi nazaridan doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Milliy o'zlikni anglashning samarasi sanalgan istiqlolimizning dastlabki yillaridanoq mumtoz shoirlarimiz tayangan muhim sarchashmalar Qur'oni karim, Hadisi sharif va tasavvuf ta'limoti ekanligi, bular milliy qadriyatimizning asosini tashkil etishiga alohida e'tibor qaratila boshlandi va diniy-ma'rifiy mavzuda yozilgan adabiy va tarixiy asarlarni o'rganishda milliy istiqlol mafkurasi asosida xolis yondashuv yetakchi uslubga aylandi. Ayniqsa, Yangi O'zbekistonda uchinchi Renesans poydevori yaratilishi munosabati bilan XVIII asrda yashab, lirik turning turli janrlaridagi she'rlarida e'tiqodiy qarashlarini ham badiiy talqin etgan, ishqiy-sarguzasht mazmunidagi, agiografik – payg'ambarlar tarixiga bag'ishlangan hamda diniy-ma'rifiy mavzuda dostonlar ijod etgan Muhammad Sobir Sayqaliy singari iste'dodli shoirlarning ijodiy merosini o'rganishga keng imkoniyatlar yaratildi. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev e'tirof etganidek: "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak"¹. Ushbu mulohazalardan kelib chiqib ijodidida oshiqona, ilohiy-irfoniy, axloqiy-ta'limiy, ishqiy-sarguzasht, diniy-ma'rifiy, jasorat va matonat, odamiylik, vatanparvarlik, sadoqat, e'tiqodda sobitlik, haqsevarlik, Payg'ambar (s.a.v.)ga cheksiz muhabbat singari g'oyalarni yuksak san'atkorlik bilan badiiylashtirgan Muhammad Sobir

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги «Тараққиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади» мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси// Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь.

Sayqaliy – Hisoriy she’riyatini zamonaviy tahlil metodlariga tayanib tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son, “O‘zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmonlari; “Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosini yurtimiz va jahon miqyosida keng targ‘ib qilish hamda Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili”ni yuqori darajada o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2025-yil 9-fevraldagi PQ-43 sonli, “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 10- fevraldagi PF-126-sonli, “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865 sonli, “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida “Ijod” fondini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2010-yil 26-fevraldagi PQ-1292-sonli, “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli, “Oliy ta’lim tizimini yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017- yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli, “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilish darajasi. Dunyo adabiyotshunosligida diniy-ma’rifiy, tasavvufiy adabiyot muammolari H.Ritter, L.Massignon, J.S.Trimingem, A.Shimmel, A.Zarrinkov, M.A.Jo‘shon singari adabiyotshunos va sharqshunoslar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, bu tadqiqotlar asosan arab va fors tilli ijodkorlar asarlari misolida amalga oshirilgan². Poetika va badiiy mahorat masalalari Aristotel, Shamsi Qays Roziy, Atoulloh Husayniy, M.M.Baxtin, L.G.Prigojina, A.N.Veselovskiy, A.A.Potebnya singari taniqli olimlarning³ tadqiqotlarida

² Qarang: Хорижда тасаввуф таълимотининг ўрганилиши. Талкин ва таржималар муаллифи Қ.Исмоилов. – Тошкент: “Mumtoz so‘z”, 2008.

³ Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 152 б. Шамси Қайс Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе: “Адиб”, 1991. –С. 332; Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. Форс. А.Рустамов тарж. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 400 б., Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. М, 1979. – С. 222. Пригожина Л.Г. Проблемы поэтической драмы и советский театр рубежа 1920-1930 х годов. Учебное пособие. – Л., 1991. – 74 с. Веселовский А. Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. –

monografik aspektda tadqiq etilgan. Ularda poetika masalasi adabiyot nazariyasi mezonlari doirasida o'rganilgan. O'zbek adabiyotshunosligida sobiq ittifoq davrida ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy ijodi misolida uning poetik mahorati masalasi A.Sa'diy, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, A.Rustamov, Yo.Is'hoqov singari olimlar tomonidan teran tadqiq etilgan bo'lsa-da, biroq Navoiy she'riyatining tasavvufiy mohiyati to'la ochib berilmadi⁴. Istiqloq yillarida diniy-ma'rifiy, tasavvufiy adabiyot va mumtoz sharq poetikasi, badiiy mahorat masalari tadqiqiga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, B.Valixo'jaev, A.Hayitmetov, N.Komilov, R.Vohidov, H.Ne'matov, M.Mahmudov, I.Haqqulov, H.Qudratillayev, M.Muhiddinov, M.Imomnazarov, A.Quronbekov, Sh.Hasanov, A.Abdug'odirov, D.Salohiy, N.Jabborov, S.Olimov, N.Jumaxo'jaev, Sh.Sirojiddinov, Sh.Hayitov, K.Mullaxo'jayeva, U.Qobilov, U.Jo'raqulov, D.Yusupova, H.Eshonqulov, N.Bekova, M.Rajabova, N.Bozorova, Z.Mamadaliyeva, Z.Amonova, O.Davlatov, M.Asadov, R.Jumayev, Z.G'afforova, D.Sodiqova, U. Otayorova kabi adabiyotshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlari, asarlari bunga misol bo'la oladi⁵.

224 с. Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1990. – 299 с. Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – Москва: Искусство, 1976. – 614 с.

⁴ Qarang: Sa'diy A. Simvolizm t'ug'risida. – Toshkent: Uzdavnaashr, 1932; Xayitmetov A. Navoiyning ijodiy metodi masalalari. – Toshkent: Uzfanaakadnaashr, 1963; Шу муаллиф. Navoiy lirikasi. – Toshkent: "Fan", 1961; Abdug'afurov A. Navoiy ijodida satira. – Toshkent: "Fan", 1972; Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1979; Isoqov E. Alisher Navoiyning ilk lirikasi. – Toshkent: "Fan", 1965; Шу муаллиф. Navoiy poetikasi. – Toshkent: "Fan", 1983.

⁵ Valix'jaev B. Mumtoz siymolar. I jild. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomiдаги халқ мероси нашриёти, 2002., Шу муаллиф. Mumtoz siymolar. II jild. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomiдаги халқ мероси нашриёти, 2002; Xayitmetov A. Navoiyxonlik suхbatlari. – Toshkent: "Ezuvchi", 1993, Шу муаллиф. Temuriylar davri uzbek adabiyoti. – Toshkent: "Fan", 1996.; Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: "Movarounnahr" – "Uzbekiston", 2009. Шу муаллиф. Хизр чашмаси. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2005. Ma'no-lar olamiga safar. – Toshkent: "TAMADDUN", 2002; Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyat. – Buxoro: "Buxoro", 1994 Vohidov R., Ne'matov X., Mahmudov M. S'z bag'ridagi ma'rifat. – Toshkent: "Ezuvchi", 2001; Vohidov R., Eshonqulov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2008. – B. 197-438; Xaqkulov I. Ch. U'zbek tasavvuf adabiyotining shakllanishi va taraqqiyoti: Filol. fanlari dokt. diss. – Toshkent: 1995., Xaqkulov I. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991., Шу муаллиф. Tasavvuf saboklari. – Buxoro: "Buxoro", 2000; Navoiyga qaytish. – Toshkent: "Fan", 2007., Takdir va tafakkur. – Toshkent: "Sharq", 2007; Xasanov S. Navoiyning etti tuхfasi. – Toshkent: F.Fuлом nomiдаги Adabiyot va san'at нашriёти, 1991; Kudratullayev X. Navoiyning adabiy-estetik qarashlari. – Toshkent: 77 nashr, 1991; Muhiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2005; Imomnazarov M. XXI asr. Navoiyshunoslikka kirish. Toshkent: TDShI, 2018; Quronbekov A. Xo'fiz gazaliyotida ma'no-lar silsilasi. – Toshkent: "Fan", 1994; Quronbekov A. Xo'fiz asrorining etti pardasi. – Toshkent: TDShI, 2009; Quronbekov A. Alisher Navoiy "Xamsa"si ummonidan katalar. – Toshkent: TDShI, 2017; Abdug'odirov A. Tasavvuf va Alisher Navoiy ijodiyoti (Vaхdat ul-vujud problemasi b'ycha). Filol. fan. dokt. diss. – Toshkent: 1998; Salohiy D. Navoiy nasrida tasavvuf. – Samarqand: SamDU nashri, 1995. Шу муаллиф. Xuriyat xarorati. – Toshkent: "Fan", 2007; Tasavvuf va badiiy ijod. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 1995; Jabborov N. Ma'rifat nedir? – Toshkent: "Ma'naviyat", 2010; Jabborov N. "Ilm andoq ganji nofiydur..." // "Sharq yulduzi", 2002. № 3. – B. 150-151; Jabborov N. Oй ham ibodat qiladimi? // "U'zbekiston adabiyoti va san'ati", 2005 йил, 28 oktyabr; Olim S. Ishq, oshiq va ma'shuk. – Toshkent: "Fan", 1992; Naqshband va Navoiy. – Toshkent: "U'kituvchi", 1996; Jumaх'ja N. Satrlar silsilasidaги seхr. – Toshkent: "U'kituvchi", 1996; Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarning qiёсий-tipologik va tekstologik taхlili. – Toshkent: Akademnaashr, 2001, Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik (1-kitob). – Toshkent: "Tamaddun", 2018; Xayitov Sh. Alisher Navoiy "Maхbub ul-club" asarining manbalari va goyiviy-badiiy taхlili. Filol. fanlari nomz... diss. – Toshkent, 1997. Шу муаллиф. "Maхbub ul-club"da tasavvufiy jilolar. – Toshkent: "Fan", 1998; Javonmardlik хаkikati. – Toshkent: "Fan", 2005; Mullax'jaeva K.T. Alisher Navoiy gazaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uйgunligi ("Badoeъ ul-bidoъ") devoni asosida). Filol. fan. nomz. diss. avtorеф. – Toshkent, 2005; Qobilov U. Ilohiyat

Muhammad Sobir Sayqaliy hayoti va ijodini o'rganish dastlab uning "Bahrom va Gulandom" dostoni misolida amalga oshirildi. R.Aliyev dastlab ushbu dostonni nashr etib, 1964-yilda "Bahrom va Gulandom" dostoniga oid nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi⁶. Adabiyotshunos M.Muhiddinov o'zining nomzodlik dissertatsiyasida, keyinchalik e'lon qilingan monografiyasida Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom" dostonining an'anaviy sujetga aloqadorligi nuqtayi nazaridan tadqiq etdi⁷. Keyingi yillarda Saylaqiyning diniy-ma'rifiy asarlari, jumladan, "Qissayi Sayqaliy"ni nashr etish⁸, unga doir tadqiqotlar⁹ va maqolalar¹⁰ yaratishga birmuncha e'tibor kuchaydi. Shunday bo'lsa-da, o'zidan salmoqli adabiy meros qoldirgan Sobir Sayqaliyning hayoti va ijodi, adabiy merosi borasida olib borilgan bunday tadqiqotlarning dastlabki muhim ilmiy izlanishlar sifatida baholash mumkin. Jumladan, shoirning poetik mahorati masalasi hozirga qadar mumtoz badiiyat tamoyillari asosida maxsus o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bog'liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "*Alisher Navoiy va adabiy ta'sir masalalari*" mavzusidagi ilmiy izlanishlar doirasida bajarilgan.

va badiiyat. – Toshkent: "Nihol", 2008; Шу муаллиф. Ўзбек адабиётида нубувват талқини ва образлари талқини. Филол. фанлари докт. дисс. автореф. – Самарқанд, 2019; Жўрақулов У.Х. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтикаси. Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Toshkent, 2017; Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритминг ўзаро уйғунлиги. – Toshkent: "MUMTOZ SO'Z", 2001; Эшонқулов Х. Алишер Навоий шеърлятида самовий тимсоллар ("Бадойеъ ул-бидоя" ва "Наводир ун-ниҳоя") девонлари асосида). Филол. фанлари номз... дисс. – Самарқанд, 1999. Шу муаллиф. Самовот – ишқ мазҳари. – Toshkent: Фан, 2008; Шу муаллиф. Алишер Навоий ғазалиётида ишқ поэтикасининг қиёсий-типологияк таҳлили ("Хазойин ул-маоний" мисолида). Филол. фанлари докт. дисс. – Самарқанд, 2020; Бекова Н. Алишер Навоий шеърлятида ҳамд поэтикаси. – Toshkent: "Фан", 2006; Ражабова М. Алишер Навоийнинг шеърлий дурдонаси. – Toshkent: Фан, 2008; Бозорова Н. Алишер Навоий ғазалларида кўнгил образи. – Toshkent: "Фан", 2009; Мамадалиева З.У. "Лисон ут-тайр" дostonидаги рамзий образлар тизими: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Toshkent, 2011; Амонова З. Хуруфийлик ва бадий ижод. – Toshkent: "PARADIGMA", 2017; Давлатов О.Д. Алишер Навоий шеърлятида Куръон оятлари ва ҳадисларнинг бадий талқини: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори автореферати. – Самарқанд, 2017; Асадов М. Ўзбек мумтоз адабиётида риндона маъно ва лирик қахрамон характери: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. – Toshkent, 2017; Жумаев Р. "Маснавий Маънавий" ва "Лисон ут-тайр"даги ҳикоятларнинг қиёсий таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори автореферати. – Самарқанд, 2018. Ғаффорова З. Алишер Навоий ҳамд ва наът ғазалларининг ғоявий-бадий талқини. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори автореферати. – Самарқанд, 2018; Содикова Д. Муслихабегим Мискин шеърляти поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси – Бухоро, 2022; Otayorova U. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" va Abdurahmon Jomiy "Xiradnomayi Iskandariy" asarlarining qiyosiy tahlili. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – Samarqand, 2024.

⁶ Сайқалий Баҳром ва Гуландом. Нашрга тайёрловчи Р.Алиев. – Toshkent: "Фан", 1960; Алиев Р. Сайқалий ва унинг "Баҳром ва Гуландом" дostonи. Филология фанлари кандидати деган илмий даражани олиш учун ёзилган диссертация. – Toshkent, 1964.

⁷ Муҳиддинов М. "Баҳром ва Дилором" туркуми ва ўзбек адабиётида "Баҳром ва Гуландом" (Баҳром Гўр сюжети эволюцияси). Филология фанлари кандидати илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Toshkent, 1972; Шу муаллиф. Нурли қалблар гулшани. – Toshkent: "Фан", 2007, 87-94-бетлар.

⁸ Собир Сайқалий Ҳисорий. Равзат уш-шуҳадо (Шахидлар боғи) ёхуд Имом Ҳасан ва Имом Ҳусайн қиссалари. Нашрга тайёрловчилар С.Сайфуллоҳ, Д.Хунзикар. – Toshkent: "Мовароуннахр", 2004.

⁹ Soyipov S. "Qissayi Sayqaliy" asari qo'lyozma nusxalarining qiyosiy-tekstologik tadqiqi. – Toshkent: "VNESHINVESTPROM", 2020, 9-13-бетлар.

¹⁰ Sultonova D. Sayqaliyning "Qiyomatnoma" asari.

file:///C:/Users/comp/Downloads/Sultonova+Dilovar+Nematilla+qizi.pdf

Tadqiqotning maqsadi Sobir Sayqaliyning poetik mahorati, lirikasining janrlari, mavzular ko‘lami, obrazlar tizimini aniqlashtirib, shoir sifatidagi adabiy mahoratini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sobir Sayqaliy shoirlik iste’dodini belgilovchi omillar asosida shoir lirikasining janrlari, mavzular olami, obrazlarini aniqlashtirib, Sayqaliyning lirik shoir sifatidagi adabiy mahoratini yoritish;

“Bahrom va Gulandom” dostonining sujeti, kompozitsiyasi, janriy xususiyati va obrazlar olamini ilmiy o‘rganib, shoirning an’anaviy sujetning qayta yaratish mahoratini belgilash;

shoirning “Bahrom va Gulandom” misolida badiiy portret yaratish, jang lavhalarini tasvirlash mahoratini asoslab, dostondagi nomalarning asar kompozitsiyasidagi o‘rni va badiiyatini ko‘rsatish;

“Qissayi Sayqaliy”ning tuzilishi, janriy xususiyatlari, obrazlari va muallif uslubining muhim belgilari tahlillar asosida aniqlashtirish;

“Qissayi Sayqaliy” misolida shoirning she’riy hikoyanavislikdagi va badiiy-tasviriy vositalardan foydalanishdagi badiiy mahoratini ochib berish.

Tadqiqot obyekti sifatida Sobir Sayqaliyning lirik she’rlari, 1960-yilda R.Aliyev tomonidan nashr etilgan “Bahrom va Gulandom”¹¹, 2004-yilda S.Sayfulloh, D.Xunziker tomonidan “Qissayi Sayqaliy”ning “Ravzat ushshuhado”¹² nomi ostida chop etilgan nashri tanlandi. O‘rni bilan “Qissayi Sayqaliy”ning Sh.Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti ARMi Qo‘lyozmalar fondida 12-inventar raqam ostida saqlanayotgan “Kitobi Sayqaliy” (کتابی صیقلی) deb atalgan qo‘lyozma nusxasiga va boshqa manbalarga murojaat etildi.

Tadqiqot predmetini Sobir Sayqaliy lirik she’rlari, ishqiy-sarguzasht mavzudagi “Bahrom va Gulandom” va diniy-ma’rifiy mazmundagi “Qissayi Sayqaliy” dostonlarining poetikasi tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, kontekstual, germenevtik, biografik va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sobir Sayqaliyning qofiyalanish tartibi, bandlar tuzilishi musammatga xos, 12 misrali she’riy shaklni yaratgani, ijtimoiy, falsafiy, ishqiy mavzularda vatanparvarlikni diniy motivda bayon etgani hamda lirikasi orqali XVIII asr davr voqeligini yoritishda “Bahrom”, “parvona”, “rabot”, “sarbon” kabi obrazlardan unumli foydalangani aniqlangan;

Sobir Sayqaliy “Bahrom va Gulandom” dostonida an’anaviy sujetga ijodiy yondashib, uni kompozitsiya, motiv va obrazlar jihatidan qayta badiiylashtirishga erishgani, *Bahrom va Gulandom* o‘rtasidagi yozishmalarni she’riy noma janrida keltirgani, bu esa dostonda stilizatsion folklorizm sifatida namoyon bo‘lgani, jang

¹¹ Сайқалий. Баҳром ва Гуландом. –Тошкент: “Фан”, 1960. (Bundan keyin ushbu manbaga murojaat qilinganda, qavs ichida “BG” qisqartmasini keltirib, sahifasini ko‘rsatish bilan kifoyalanamiz – B.J.)

¹² Собир Сайқалий Ҳисорий. Равзат уш-шухадо (Шахидлар боғи) ёхуд Имом Ҳасан ва Имом Ҳусайн киссалари. Нашрга тайёрловчилар Сайфуллоҳ С., Хузикар Д. –Тошкент: “Мовароуннахр”, 2004. (Bundan keyin ushbu manbaga murojaat qilinganda, qavs icida “RSh” tarzida keltirib, sahifasini ko‘rsatish bilan kifoyalanamiz – B.J.)

lavhalari tasvirida asarlararo ko'chuvchi statik va individual uslubdagi dinamik portret yaratgani isbotlangan;

“Qissayi Sayqaliy”da shoirning she'riy hikoyat yaratishdagi roviylik mahorati, Payg'ambar (s.a.v.) vafoti haqidagi hikoyatda musaddas shaklidan foydalanib, uni adabiy-estetik hodisaga aylanishini ta'minlagani, fikriy qaytariq usuliga murojaat etib, *istiora, tashbeh, sifatlash, husni ta'lil, ta'dil, irsoli masal* singari tasviriy vositalarni qo'llaganligi dalillangan;

“Qissayi Sayqaliy” dostoni masnaviy, g'azal va musammat kabi janrlardan tuzilgani, asarda fidoyilik, ma'rifat, axloqiy tarbiya ulug'langani, farzandidan judolik iztirobidagi shaxs ruhiyati Imom Hasan va Imom Husayn bilan aloqador voqeliklarda ishtirok etuvchi ijobiy, salbiy xarakterdagi obrazlar misolida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sobir Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom”, “Qissayi Sayqaliy” nomli dostonlaridagi shoir hasbi holiga oid qaydlar asosida uning tarjimayi holiga oid ma'lumotlar, jumladan, 80 yoshda ham hayot bo'lgani, shoirning yuksak iste'dod egasi ekanligi tahlillarga tayanib aniqlashtirilgan, uning g'azal, xususan, ulardagi musajja' baytlar, mustazod va musammatning turli ko'rinishlarida ijod qilgani iste'dodining muhim qirrasini sifatida namoyon bo'lishi asoslangan;

Shoir “Bahrom va Gulandom” dostonida an'anaviy sujetni ilk bor turkiy tilda nazmda badiiy ifodalash bilan bir qatorda, dostonning o'ziga xos kompozitsiyasini 33 katta-kichik bobdan tarkib topgan holda yaratishga, syujet voqeyliklarini dostonida keng qo'llanuvchi masnaviy uslubi bilan kifoyalanmay, g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, noma, ichki hikoyat singari she'riy shakllar bilan ziynatlashga erishgani dalillangan;

“Bahrom va Gulandom”dan 319 baytdan tarkib topgan 13 nomaning o'rin olishi asar kompozitsiyasini nomachilikda namoyon bo'lgan o'ziga xos murojaat bilan boshlanuvchi masnaviy va ularga ilova qilingan g'azal shaklidagi nazm namunalari bilan bezab, an'anaviy sujetning mumtoz adabiyot ta'siri bilan jozibador tasvirlashga erishgani ko'rsatib o'tilgan;

“Qissayi Sayqaliy”dagi shoirning voqeyliklarni asosan masnaviyda badiiy ifodalab, 38 g'azal, 7 bandli muxammas, 59 bandli musaddas, 10 bandli muashshar, boshqa shoirlar ijodida kuzatilmaydigan, har bandi 12 misradan tarkib topgan 12 bandli o'ziga musammat she'riy shakllari bilan tasvirlanayotgan voqeylikka joziba baxsh etgani, payg'ambarlar qissalari bilan Imom Hasanning zaharlanishi, Imom Husaynning Karbaloda fojeali o'ldirilishi voqealari orasida badiiy kashf etilgan o'xshashliklarni ushbu she'riy shakllar vositasida tadrijiy rivojlantirishga erishgani tahlillar asosida muayyanlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya yuzasidan chiqarilgan xulosalar tadqiqotchi tomonidan e'lon qilingan ilmiy ishlarda o'z ifodasini topganligi hamda bu xulosalar ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy baholanganligi, aniq qo'yilgan muammo qiyosiy-tarixiy, kontekstual tahlil, germeneytik, biografik va statistik tahlil usullari yordamida yechilganligi, nazariy xulosa va farazlarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining

ilmiy ahamiyati Sobir Sayqaliy XVIII asr o‘zbek mumtoz adabiyotining atoqli vakili sifatida mumtoz lirikaning g‘azal, mustazod, musammat va uning ko‘rinishlarida ijod qilgan, an’anaviy sayyor sujetlarni “Bahrom va Gulandom” dostonida, agiografik mazmundagi qissalarni “Qissayi Sayqaliy” dostonida kuzatilgani kabi kompozitsion jihatdan ham, motiv, obraz jihatidan ham qayta yaratib, ularga g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, muashshar va har bandi 12 misrali musammat shakli bilan mumtoz adabiyot ta’siri bilan joziba baxsh etgan shoir sifatida xalq qissalariga mumtoz adabiyot ta’siri bilan aloqador tadqiqotlar uchun mazkur ish muayyan darajada ilmiy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyaning xulosalaridan adabiyotshunoslik nazariyasi, o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi, tasavvuf va badiiy ijod, ma’naviyat asoslari kabi o‘quv fanlari bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari talabalari va magistrantlari uchun darslik, o‘quv qo‘llanmalar yozishda, ularga oid dars mashg‘ulotlarini tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriylanishi. Sayqaliy she’riyati poetikasi masalasini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagi yo‘nalishlarda joriylangan:

Sobir Sayqaliyning qofiyalanish tartibi, bandlar tuzilishi musammatga xos, 12 misrali she’riy shaklni yaratgani, ijtimoiy, falsafiy, ishqiy mavzularda vatanparvarlikni diniy motivda bayon etgani hamda lirikasi orqali XVIII asr davr voqeligini yoritishda “Bahrom”, “parvona”, “rabot”, “sarbon” kabi obrazlardan unumli foydalangani to‘g‘risidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpog‘iston gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzularidagi fundamental ilmiy loyihalarni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi Milliy instituti Qoraqalpog‘iston filiali 2025-yil “04” 06 №243 son ma’lumotnomasi). Natijada Ilmiy natijalarning qo‘llanishi orqali fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda monografiyalar ilmiy saviyasini oshirishda xizmat qilgan;

Sobir Sayqaliy “Bahrom va Gulandom” dostonida an’anaviy sujetga ijodiy yondashib, uni kompozitsiya, motiv va obrazlar jihatidan qayta badiiylashtirishga erishgani, *Bahrom va Gulandom* o‘rtasidagi yozishmalarni she’riy noma janrida keltirgani, bu esa dostonida stilizatsion folklorizm sifatida namoyon bo‘lgani, jang lavhalari tasvirida asarlararo ko‘chuvchi statik va individual uslubdagi dinamik portret yaratgani isbotlangan ilmiy yangiliklardan 2021–2023-yillarda bajarilgan IZ-2021020813 Alisher Navoiy ijodining xorijda o‘rganilishi va targ‘iboti asosida ko‘p tilli multimediya to‘plamini yaratish amaliy grant loyihasining metaforalar qismini bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 3-dekabrda 04/1-3999 son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasi yangi fikr-mulohazalar bilan boyishiga erishilgan;

“Qissayi Sayqaliy”da shoirning she’riy hikoyat yaratishdagi roviylik mahorati, Payg‘ambar (s.a.v.) vafoti haqidagi hikoyatda musaddas shaklidan foydalanib, uni adabiy-estetik hodisaga aylanishini ta’minlagani, fikriy qaytariq usuliga murojaat etib, *istiora, tashbeh, sifatlash, husni ta’lil, ta’dil, irsoli masal* singari tasviriy vositalarni qo‘llaganligi dalillangan yangiliklaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2023–2024-yillarda bajarilgan IZ-30910203-raqamli “Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 23-dekabrda 04/1-399-son ma’lumotnomasi) Natijada loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasi yangi fikr-mulohazalar bilan boyishiga erishilgan;

“Qissayi Sayqaliy” dostoni masnaviy, g‘azal va musammat kabi janrlardan tuzilgani, asarda fidoyilik, ma’rifat, axloqiy tarbiya ulug‘langani, farzandidan judolik iztirobidagi shaxs ruhiyati Imom Hasan va Imom Husayn bilan aloqador voqealarda ishtirok etuvchi ijobiy, salbiy xarakterdagi obrazlar misolida asoslangan o‘rinlardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi she’riyat va adabiy tanqid kengashlari hisoboti yig‘ilishlarida, shuningdek, Samarqand viloyat bo‘limi qoshida faoliyat yuritayotgan “Sadoqat” to‘garagi faoliyatida va adabiy kechalarda, ijodkor yoshlar bilan uchrashuvlarda, amaliy, onlayn seminarlarda foydalanildi. (O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 20-aprelda 01-03/228-sonli ma’lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida tashkil etilgan yosh shoir va olimlar bilan uchrashuvlarda mazkur tadqiqotda o‘rganilgan asar janri haqida bahs yuritadigan bir qator nazariy manbalarning mazmun-mohiyati bugungi davr ijod ahli uchun muhim dasturulamal sifatida xizmat qilishi mumkinligi muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 9 ta, xorijiy jurnallarda 8 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya 132 sahifadan iborat bo‘lib, kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Sayqaliy – XVIII asr o‘zbek mumtoz adabiyotining iste’dodli shoiri**” deb nomlangan. Birinchi fasl “*Sobir Sayqaliy shoirlik iste’dodini belgilovchi omillar*” deb yuritiladi. Bunda shoir haqida yetib kelgan ma’lumotlar umumlashtirib, uning o‘z asarlari asosida tarjimayi holi, iste’dodini belgilovchi omillar xususida so‘z yuritiladi.

Rahim Aliyev shoirning “Qissayi Ibrohim binni Muhammad”, “Qissayi shahzoda Bahrom va Gulandom”, “Qissayi Hamroh va Hurliqo”, “Ravzat ushshuhado”, “Axtamnoma”, “Vays ul-Qaran”, “Zayn ul-arab” kabi asarlari yetib kelganini qayd etadi¹³. M.Muhiddinov tadqiqotida ham Sayqaliyning shu nomdagi asarlarining mavjudligi ko‘rsatib o‘tilgan¹⁴. “Tazkirayi Qayumiy”da Sayqaliy Hisor o‘zbeklaridan bo‘lib, uning nomi Muhammad Sobir bo‘lganini, nazm muqaddamasida o‘zini “Hoji o‘g‘li” deb tanishtirgani ta’kidlanib, shoir haqidagi Mavlaviy Xo‘qandiy ma’lumotlari keltiriladi. Ushbu ma’lumotlarda Sayqaliyning muhabbati olobolardan ekanligi ta’kidlanib, zo‘r qobiliyat egasi bo‘lgan bu zot qotma, cho‘qqisoqol, qoramtir po‘stli oriqli gavdali, bir ko‘zi ko‘r kishi ekanligi qayd etiladi. Unda keltirilgan latifanamo hikoyatdan o‘z davrida shoir ijodi muxlislariga ega bo‘lgani ayonlashadi¹⁵. “O‘zbek milliy ensiklopediyasi”da Sobir Sayqaliyning 1730-yilda Hisorda tug‘ilib, 1798-yilda vafot etganini ko‘rsatib o‘tiladi¹⁶. D.Sultonova maqolasida shoirning “Qiyomatnoma” nomli qissasining qo‘lyozmalari mavjudligiga e’tibor qaratiladi¹⁷. Tadqiqotchi S.Soyipov ham shoirning tug‘ilgan, vafot etgan vaqti sifatida yuqorida keltirilgan sanalarni ko‘rsatib, uning asarlari nashri xususida to‘xtaladi¹⁸. Sobir Sayqaliyning “Ravzat ushshuhado” asarini nashr etgan S.Sayfulloh va D.Xunziker ushbu kitobning “Imom Hasan va Imom Husayn qissalari”, “Qissayi Sayqaliy” yoki “Sayqaliy” deb atalganini ma’lum qiladi hamda R.Aliyev ma’lumotlariga tayanib, shoirning yetti nomdagi asarlarini qayd etadi¹⁹.

Sayqaliy dostonlarining ayrim o‘rinlarida o‘zining tarjimayi holi, ijodiy salohiyati xususida ba’zi ishoralarni ham qayd etib o‘tgan. Ijodkorning “Qissayi Sayqaliy” asarida “*Kamina musannif o‘zlariga pand-u nasihat qilg‘oni*” nomli hasbi holiga oid 16 baytli ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, unda quyidagi baytlar uchraydi:

*Tutib yig‘la yaqong yetguncha oltmish,
Ajala yetsa, qachon yetmishga yetmish.
Ana yetmishdin o‘ting yeti saksan,
Qachon to‘qsan yetar deb ko‘ngli to‘qsan [RSh, 181].*

¹³ Алиев Р. Сайқалий ва унинг “Бахром ва Гуландом” достони, 4-9-бетлар.

¹⁴ Муҳиддинов М. Нурли қалблар гулшани. –Тошкент: “Фан”, 2007, 87-бет.

¹⁵ Қаюмов П. Тазкирайи Қаюмиий I.–Тошкент, 1998, 73-76-бетлар.

¹⁶ Ўзбек миллий энциклопедияси, 58-бет.

https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20S%20harfi.pdf.

¹⁷ Sultonova D. Sayqaliyning “Qiyomatnoma” asari.

<file:///C:/Users/comp/Downloads/Sultonova+Dilovar+Nematilla+qizi.pdf>

¹⁸ Soyipov S. “Qissayi Sayqaliy” asari qo‘lyozma nusxalarining qiyosiy-tekstologik tadqiqi. –Toshkent: “VNESHINVESTPROM”, 2020, 9-13-бетлар.

¹⁹ Сайфуллоҳ С., Хунзикар Д. Карбало фожеаси ва бадиий ижод//. Китобда: Собир Сайқалий Ҳисорий. Ravzat ushshuhado (Шахидлар боғи) ёхуд Имом Ҳасан ва Имом Ҳусайн қиссалари. –Тошкент: “Мовароуннахр”, 2004, 4-5-бетлар.

Oltmish yoshda yoqani tutib yig‘lash, ajal yetsa, insonning yetmishga ham yetolmasligi, saksonga yetib hoy-u havasga berilishning sak – itga qiyoslab tanqid qilinishi, undan o‘tib, to‘qsonga qarab yursang ham, ko‘ngling to‘qsonga to‘q yetarmikin, tarzidagi ifodalar shoirning faqatgina so‘z o‘yinlari bo‘lmay, balki uning ushbu asarni yozayotganida 80 yoshdan oshganiga ishoradir. Yo‘qsa, shoir yuz bilan bog‘liq ham so‘z o‘yinlari qila olardi. Shu tarzda shoir she‘rlaridagi hasbi holga oid ma‘lumotlar tahlil qilinib, Sayqaliyning 80 yoshda ham hayot bo‘lgani, uning “*tab‘i nazmi fazli Haq*” bo‘lsa-da, “*Xirad ustodidin olg‘on sabaq*”lar bilan ijodiy salohiyatini oshirib iste‘dodli shoir sifatida tanilgani, mashshaqqatli hayot kechirishiga qaramay, siddiqlar, oriflar suhbatidan, ilohiy fayzdan bahra olgani, o‘zini xarobotiylardan anglab, Alisher Navoiyning rindona bitilgan tarji‘bandidan ijodiy ta’sirlagani dalillanadi.

Ikkinchi fasl “*Shoir lirikasining janriy xususiyati va badiiyati*” deb nomlanadi. Unda Sayqaliy lirik she‘rlarining manbalari ko‘rsatib o‘tilib, ularning janriy xususiyati va badiiyati tahlil etiladi.

Shoir haqida ma‘lumot berilgan deyarli barcha manbalarda uning g‘azal, muxammas, musaddas, masnaviy singari mumtoz lirik janrlarda she‘rlar yozgani qayd etiladi. S.Soyipov uning shoir sifatida nufuziga dalolat qiluvchi she‘rlar devoni mavjudligini ta’kidlasa ham²⁰ ushbu devonning qo‘lyozma, toshbosma nusxalari yoki nashrlari xususida biror bir ma‘lumot keltirilmaydi. Ijodkorning “Bahrom va Gulandom” nomli ishqiy-sarguzasht va bir necha diniy-ma’rifiy mavzuda yozgan dostonlarida g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, muashshar, noma singari she‘riy shakllardan nihoyatda unumli foydalanganligi uning badiiy ijodga lirik she‘rlar yozish bilan kirib kelganligidan dalolat beradi.

Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostonida 38 ta g‘azal, shundan 11 tasi nomalarga ilova qilingan, 1 ta mustazod, 5 ta muxammas, 1 ta musaddas, 12 noma, “Qissayi Sayqaliy”da 38 ta g‘azal, 1 ta muxammas, 1 ta musaddas, 1 ta muashshar, 1 ta har bandi 12 msradan tarkib topgan musammat she‘riy shakllaridan foydalanilgani kuzatiladi. Umumiy olganda, 76 g‘azal, 1 ta mustazod, 6 ta muxammas, 2 ta musaddas, 1 ta muashshar, 1 ta har bandi 12 msradan tarkib topgan musammat va 12 ta noma har ikkala dostonida uchraydi. “Tazkirayi Qayumiy”da keltirilgan “*Sayri gulshan etgali, ey gul, xirom etsang netar*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli, “*Ichib jomi muhabbatdin bugun mastonadur ko‘ngul*” misrali 5 baytli g‘azallar “Bahrom va Gulandom” dostonida ham keltirilgan. “*Bu yo‘lga tushganim, do‘stlarki, bir dilbarni izlarman*” satri bilan ibtido topgan 6 bandli muxammas hamda “*Mavloni Sayqaliyning debochasidan bir parcha*” sarlavhasi ostida keltirilgan 5 baytli masnaviy bu ikkala doston tarkibida uchramaydi. Shunday qilib shoirning g‘azallari soni 76 tani, muxammaslari 8 tani tashkil etib, yuqoridagi ro‘yxatga 1 ta masnaviy qo‘shiladi. Sobir Sayqaliyning lirik turning 8 janrida ijod qilganligi uning salohiyatli lirik shoir bo‘lganidan dalolat beradi. “Bahrom va Gulandom”, “Qissayi Sayqaliy” dostonlari shoir

²⁰ Soyipov S. “Qissayi Sayqaliy” asari qo‘lyozma nusxalarining qiyosiy-tekstologik tadqiqi. –Toshkent: “VNESHINVESTPROM”, 2020, 9-13-betlar.

hayotining “kibar” davri mahsuli ekanligini nazarda tutsak, uning dostonlar yozishga qadar lirik she’rlar ham ijod qilganini tasavvur qilish mumkin..

Sayqaliy o‘zining marsiya-g‘azallaridagi musajja’da bitilgan baytlarda takrir va ta’dil san’atidan ham unumli foydalanib ta’sirchanlikni oshirishga erishgan. Imom Hasan (r.a.)ning o‘g‘illari Qosimning vafotiga bag‘ishlangan g‘azalda shunday baytlar uchraydi:

Yuzi chun mehri raxshonim, qadi sarvi xiromonim,

*Du gisu anbarafshonim, bu rang gulgun **qabo** bo‘lsa.*

Bu na qad-u, bu na qomat, bu na aysh-u, bu na ishrat,

*Bu na dard-u, bu na kulfat, bu na vo **hasrato** bo‘lsa* (“RSh”, 473-474).

Shu tarzda shoirning g‘azalnavislikdagi va boshqa lirik janrlar ijod etishdagi mahorati ko‘rsatib o‘tilgan.

Xullas, Sobir Sayqaliy g‘azallaridagi musajja’da bitilgan baytlar, ularda istiora, tashbeh, sifatlash, tajohuli orif, ta’dil, takrir, mubolag‘a singari badiiy san’atlarning qo‘llangani, nomalarining ilk misrasida keltirilgan istioraviy nidolar va ularning badiiy san’atlar bilan bezatilganligi, musammatlarining esa hajman kattaligi-yu, ular orasida har bandi 12 misradan iborat 7 bandli musammat shaklining mavjudligi shoirning yuksak iste’dod sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bahrom va Gulandom” dostonining muhim poetik xususiyatlari**” deb nomlanadi. Birinchi fasl *“Bahrom va Gulandom” dostonining sujeti, kompozitsiyasi, janriy xususiyati va obrazlar olami*” deb yuritiladi. Bunda doston sujeti Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan an’anaviy sayyor sujet Bahrom Go‘r sarguzashtlariga bir qancha jihatlari bilan o‘xshab ketishi, farqliliklari, o‘ziga xos kompozitsiyasi qiyosiy tahlilga tortilib, obrazlarining tavsif va tasniflari keltiriladi. Har ikkala sujetni o‘zbek adabiyoti misolida qiyosiy o‘rgangan M.Muhiddinov ayni mavzuda ijod etilgan asarlarni Alisher Navoiygacha va Navoiydan keyingi davr sifatida tasniflaydi hamda keyingi davr shoirlari misolida mavzuning tadrijiy taraqqiyoti masalasi o‘rganilmaganligini e’tirof etadi²¹. Adabiyotshunos “Bahrom Go‘r” sujeti bilan Navoiydan so‘ng o‘zbek adabiyotida vujudga kelib, yozma adabiyotda ilk bor Sobir Sayqaliy ijodi bilan bo‘y ko‘rsatgan “Bahrom va Gulandom” sujetining o‘xshash va farqli jihatlarni tizimli holatda ko‘rsatib o‘tadi. M.Muhiddinov e’tirof etganidek, “Bahrom va Gulandom” sujeti an’anaviy sujetdagi voqeelikning ilk epizodlarini o‘z ichiga oluvchi ekspozitsiya bilan Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Navoiy asarlarida tasvirlangan voqealar bilan o‘xshab ketadi.

Sobir Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostoni Bahrom Go‘r nomi bilan tanilgan Yazdigurdning o‘g‘li Varahrang (521-538)ga bog‘lanuvchi mifologik talqinlar, Eron va unga qo‘shni xalqlar mifologiyasida Bahrom chaqmoq xudosi xususiyatlarini ham o‘zida aks ettirgan qahramon sifatida tanishtirilishidan²² tamoman yiroq emas. Bu holat Bahromning Gulandomga uylanish maqsadida Iroqdan lashkar tortib kelgan Behzod zangini o‘ldirgani munosabati bilan Chin

²¹ Мухиддинов М. Нурли қалблар гулшани. –Тошкент: “Фан”, 2007. 7-бет.

²² Мухиддинов М. Нурли қалблар гулшани. –Тошкент: “Фан”, 2007. 9-бет.

xoqoni Farfurga qarata uning “*rasolikda benazir*” vaziri tomonidan aytilgan mulohazalarida kuzatiladi.

Sobir Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostonidagi sujet Bahrom Go‘r sujetini qisman eslatsa-da, u tarixi X-XI asrlarga borib taqaluvchi Bahrom va Gulandom sujeti asosida yaratilgan. Shoir “*dostoni ko‘hanni toza qil*”ish maqsadida ilk bor uni turkiy tilda nazmda badiiy ifodalash bilan bir qatorda, dostonning o‘ziga xos kompozitsiyasini 33 katta-kichik bobdan tarkib topgan holda yaratishga, sujet voqeyliklarini dostonda keng qo‘llanuvchi masnaviy uslubi bilan kifoyalanmay, g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, noma, ichki hikoyat singari she‘riy shakllar bilan ziynatlashga erishgan.

Dostondagi bosh qahramon Bahrom atrofida bevosita yoki bilvosita birlashuvchi yordamchi obrazlar bilan o‘ziga tegishlilikiga ko‘ra ayrim yordamchi va ikkinchi darajali obrazlar mikrosistemani²³ hosil qiladi. Gulandom dostonidagi eng muhim yordamchi obrazlardan biri bo‘lib, u o‘z atrofida kanizagi Davlatni, otasi Chin podshosi Farfurni, uning vaziri Ganjurni, saroybonni birlashtirib, shunday obrazlar mikrosistemasini vujudga keltiradi, Bahrom o‘rni bilan Chin podshosi Farfur, uning vaziri Ganjur, Gulandomning kanizagi Davlat bilan bevosita munosabatga kirishsa-da, bunday munosabatlar aslida Gulandom masalasi nuqtayi nazaridan sodir bo‘ladi. Bu yordamchi obrazlarning barchasi Bahromning jasorati, uning muhabbatiga sadoqatligiga nisbatan xahrixohlik ko‘rsatganlari bois dostonda ijobiy qahramonlar sifatida gavdalanadi. Bahrom Sayfur va uning tarafdorlari, Davlat, u bilan birga kelgan Rum qo‘shini hamda Shabrang ayyor boshchiligidagi ellik ayyor yordami bilan dastlab Chin mamlakatini Behzod bulg‘or, keyinchalik No‘shod bulg‘or hujumidan ozod qiladi. Ushbu lavhalar jarayonida Sayfur, Rum podshosi, Behzod zangi singari yordamchi obrazlar ham o‘ziga aloqador persanajlar yordamida obrazlar mikrosistemasini hosil qilgani kuzatiladi. Sayfur atrofidagi mikrosistemasida uning inisi Shamos, inglisi Sarvoso, sevgilisi Ruhafzo singari yordamchi obrazlar, Qamos, Harros, shuningdek, nomi tilga olinmagan Sayfurning yana ikki inisi, Sarvosoning doyasi, Afro‘ dev hamda parilar, Sayfur qo‘shini singari ikkinchi darajali obrazlar birlashadi. Bulardan Sayfur va uning inilari murakkab obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Ular dastlab Bahromning o‘z makonlariga kelib qolgani uni xushlamaydilar. Parilar bilan birga hayot kechirayotgan bu qahramonlar devlar tarzida tasvirlanadi.

Sobir Sayqaliy mahorati shundaki, u an‘anaviy sujetni motiv, obraz va ohang jihatdan ham stilizatsiyalashga erishdi. Obrazlarni yangicha uslubda qayta ishladi. Shoirning folklorga xos o‘zaro aytishuvlarini esga soluvchi Bahrom va surat, Bahrom va piri Jahongard, Bahrom va Gulandom, Bahrom va otasi singari personajlar orasida kechgan muloqotlarni mumtoz lirik janrlarga xos badiiy shakllarda, Bahrom va Gulandom o‘rtasidagi yozishmalarni she‘riy noma shaklida badiiy ifodalashi dostonning o‘ziga xos stilizatsion folklorizm sifatida namoyon bo‘lishini ta‘minladi.

²³ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунолик луғати. 385-386-бетлар.

Ikkinchi fasl “*Shoirning badiiy portret yaratish va jang lavhalarini tasvirlash mahorati*” deb nomlangan. Bunda dostonidagi Bahrom, Gulandom, Rum xoqoni, Chin xoqoni Farfur, Sayfur va uning ukalari, Behzod zangi, No‘shod bulg‘or, piri Jahongard, Shabrang ayyor, Sarvoso, uning doyasi, parilar, Gulandomning kanizi Davlat singari o‘nlab obrazlarning badiiy portreti keltirilgani haqida so‘z yuritilib, shoirning portret yaratishda jang lavhalari bilan bog‘liq voqeylik ifodasidan ham san’atkorona foydalanib borishi tahlillar asosida ko‘rsatiladi.

Ishqiy sarguzasht dostonlarda bosh qahramon va personajlar tasvirini keltirish, sevgisi yo‘lida kurashgan bosh qahramonning jasoratini badiiy ifodalagan jang tasvirlarini detallashtirib tasvirlash keng qo‘llanilgani kuzatiladi. Shoirning badiiy portret yaratish mahorati ayni mavzudagi dostonlarda bosh qahramon badiiy funksiyasidagi oshiq va uning ma‘shuqasi siymosini o‘quvchi ko‘z oldida gavdalantirilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunda personajning badiiy portreti deyilganda, uning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi: qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati, harakati va qiliqlarini o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochib berish nazarda tutiladi. Odatda, ishqiy sarguzasht dostonlarda bosh qahramon, uning sevgilisi va boshqa yordamchi obrazlar portretini statik portret holatida sujet voqeasini to‘xtatib, ancha mufassal detallashtirib chizish holati ham, voqealar rivoji davomida personajning tashqi ko‘rinishi, xususiyatlariga xos ayrim detallarni badiiy ifodalashni nazarda tutuvchi dinamik portretning²⁴ ham berib borilishi kuzatiladi.

Bahrom dostonida janglarda chiniqib borgan dinamik qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. U Behzod zangiga qarshi kurashayotganda, “*Damiga tortar erdi ajdahodek, Tuyuqsundin dorilg‘on bir balodek*” (“BG”, 73) tarzida qiyoslansa ham, o‘quvchining mehrini qozonadi. Shoir No‘shod bulg‘or lashkari bilan qarshilashgan vazir Davlat boshchiligidagi Rum qo‘shinlari va ularni qo‘llab-quvvatlab turgan Sayfur va uning og‘a-inilari lashkarlarini kutilmagan tashbehlar bilan badiiy ifodalab o‘zining san’atkorlik mahoratini namoyon etadi:

*Iki lashkar dema iki qo‘fi Qof,
Necha qilsam sifatlar bo‘l mag‘ay lof.
Iki lashkar emas chun iki daryo,
Gahi oqar nishib-u gahi balo.
Iki lashkar urub Jayhun kabi mavj,
Bahodirlar qiziqib oldilar avj* (“BG”, 166).

Dostonidagi jang lavhalaridan keltirilgan ushbu misolda shoir tashbehning bir mushabbihga birdan ortiq mushabbihun bihlar qo‘llanishi bilan hosil qilinuvchi tashbihi jam²⁵ ko‘rinishini qo‘llash bilan mubolag‘aning “*ul da‘vo odattin tashqari bo‘lib, aqlg‘a ham sig‘ma*” ydigan ko‘rinishi sanalgan g‘uluvv²⁶ni vujudga keltiradi. Ikki lashkarning dastlab Qof tog‘iga, keyinchalik ikki daryoga, oxirida Jayhun daryosiga o‘xshatilgani kuzatiladi. Uchchala baytning ham birinchi

²⁴ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунолик луғати. 226-227-бетлар.

²⁵ Хожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малохати. –Тошкент: “Шарк”. 1999, 16-бет.

²⁶ Атоуллоҳ Хусаиний. Бадойиъу-с-санойиъ, 153-бет.

misralari boshida *“Iki lashkar”* birikmasining mushabbih sifatida takrorlanishi unga ta’kid ma’nosini berishi bilan xarakterlanadi.

Sobir Sayqaliyning statik va dinamik portret yaratish, jang lavhalarini badiiy talqin etishda mahoratli shoir ekanligi sezilib turadi. Bunday lavhalar dostonida tez-tez uchrashi uning iste’dodidan darak beradi. Shoir bosh qahramon Bahrom obrazining dastlab statik portretini yaratsa, keyinchalik u bilan bevosita aloqaga kirishgan Gulandom, piri Jahongard, Sayfur, uning ukalari, Afro‘ singari devlar; Sarvoso, uning doyasi singari parilar, Behzod zangi, No‘shod bulg‘or, Sherafkan, Shabrang ayyor singari xilma-xil xarakterdagi qahramonlar portretini dinamik yaratishda o‘zaro muloqot va jang lavhalari jarayonini ifodalash uslubidan foydalanib, mubolag‘aviy manzaralar chizishini namoyon qiladi.

Gulandom portretini yaratishda shoirning Ruhafso va Sarvoso tavsiflarini qiyosiy qo‘llashi, ularni *“uch guli navrasta”*, *“uch mahi chobuk”*, *“uch huri jannat”* istioralarida birlashtirib, bir necha mushabbihun bihlarni ularga nisbatlash va takrir asosida ma’noni kuchaytirishi, qiyosiy portretlarni musiqiy ohangdorlikni hosil qiluvchi mustazodda badiiy ifodalab, qofiya tanlashda mahorat ko‘rsatishi shoir iste’dodining bir qirrasini sifatida namoyon bo‘ladi. Uning jang lavhalari tasvirida tarsi’ badiiy san’atini hosil qilishi qofiya qo‘llashdagi mahoratidan darak bersa, ba’zan ikfo singari qofiya qusurlarining vujudga keltirishi turkona uslubining samarasi sifati ko‘zga tashlanadi.

Uchinchi fasl *“Nomalarning asar kompozitsiyasidagi o‘rni va badiiyati”* deb nomlangan. *“Xat”*, *“maktub”*, *“risola”* singari ma’nolarni anglatuvchi noma o‘zbek mumtoz adabiyotining asosiy lirik janrlaridan biridir. Noma va uning turlari haqida B.Valixojayevning *“O‘zbek epik poeziyasi tarixidan”* nomli kitobda va Dilorom Muminovanning dissertatsiyasida batafsil ma’lumotlar keltirilgan²⁷. Sobir Sayqaliyning *“Bahrom va Gulandom”* dostonidagi nomalar shoirning *“Muhabbatnoma”* va uning ta’sirida yozilgan asarlar bilan bir qatorda, shoir Alisher Navoiyning ishqiy-sarguzasht mazmunidagi dostonlaridan ham xabardor bo‘lganini ko‘rsatadi. Bahrom tilidan *“Ey varaq, borsang mani arzimni sultonimg‘a ayt”* (*“BG”*, 89) misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azal shaklida yozilgan ilk nomaning Alisher Navoiyning *“Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt”* misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga nazira tarzida bitilgani Sobir Sayqaliyning ulug‘ salaf Navoiy asarlaridan yetarlicha ta’sirlanganini dalillaydi. Ushbu g‘azal-noma bilan hisoblaganda dostonidagi nomalar soni 13 tani tashkil etadi. Bu g‘azal noma mazmunini ifoda etishidan tashqari, shisha tuynukdan bir-birini ko‘rgan sevishganlarning nomalar vositasida muloqotga kirishishlariga zamin hozirlaydi. G‘azal-noma Davlat tomonidan Gulandomga yetkazilgandan so‘ng Gulandom javob maktubini bitadi. Nomalar dostonida salmoqli o‘rin tutadi (*“BG”*, 89-109). Ular Bahromning qalandar libosini kiyib, Navro‘z kelguniga qadar uzoq vaqt davomida Gulandom ko‘shking oldida maskan tutgani bilan Gulandomning ko‘rishishga rozilik bildirganiga qadar

²⁷ Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. –Тошкент: “Фан”, 1974, 8-20-бетлар; Муминова Д. Номанавислик аниқлиги ва туркий шеърда lirik жанрлар taraqqiyoti. Fil. Fan. Fal. Doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Samarqand, 2023, 11-19-бетlar.

boʻlgan voqealikni ifodalaydi. Bunda voqealar rivoji ancha sekinlashib, sevishganlarning oʻzaro hol soʻrashlari, tanishishlari, dil izhorlarini badiiy ifodalashlari qamrab olinadi. Nomalar vositasida shoir epik asarga lirik ruh bagʻishlaydi.

Dostondan 319 baytdan tarkib topgan 13 nomaning oʻrin olishi asar kompozitsiyasini nomachilikda namoyon boʻlgan oʻziga xos murojaat bilan boshlanuvchi masnaviy va ularga ilova qilingan gʻazal shaklidagi nazm namunalari bilan ziynatlantirgan. Ayni choqda ularda gul va bulbul, sham va parvona, Farhod va Shirin, Layli va Majnun haqidagi hikoyatlar qatorida shahzoda va unga oshiq boʻlgan gado, shoh qiziga oshiq boʻlgan darvesh, musulmonlarning oʻlimiga sababchi boʻluvchi jangdan chekingan podshosh bilan bogʻliq ichki hikoyatlarning tamsiliy mohiyat kasb etishi nomalarga joziba bagʻishlash bilan bir qatorda sevishganlar holatini aniq namoyon boʻlishiga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, shoir epik asarlar nomalarning tarafayn yozilishiga alohida eʼtibor qaratib, ular vositasida nomalar tizimini hosil qila olgan.

Gulandom nomalardagi Bahromga nisbatan qoʻllangan istioraviy murojaatlar oshiqni mensimaslik kayfiyati ustuvorligi qarshida Bahrom tomonidan bitilgan nomalarning Gulandom tafsiflari keltirilgan istioraviy undalmalarda qiyosning yuksakligi, unda samoviy timsollardan foydalanilganligi oʻzaro kontrast holatini vujudga keltirish bilan bir qatorda shoirning noma janrida bitilgan asarlardan ilhomlanganini koʻrsatadi. Ularda ifodalangan mubolagʻaviy manzaralar, oʻziga xos tashbeh, talmeh, husni taʼlil va takrirlar shoirning yuksak isteʼdod egasi sifatida namoyon boʻlishini taʼminlagan. Ayniqsa, nomalarda keltirilgan takrirlar taʼkid maʼnosi bilan bir qatorda oʻziga xos pand berish mazmunini ifodalashi bilan muhim poetik vazifani bajargan.

Uchinchi bob **“Qissayi Sayqaliy” asarining badiiy xususiyatlari**” deb nomlangan. Bobning birinchi fasli *““Qissayi Sayqaliy”ning tuzilishi, janriy xususiyatlari, obrazlari va muallif uslubining muhim belgilari”* deb yuritiladi. Paygʻambarlar hayotiga oid badiiy asarlarning turkiy va forsiy adabiyotda keng tarqalishida Qurʼoni karimdan oʻrin olgan ushbu mavzuga oid qissalarning alohida oʻrni bor. Islomiy manbalarda 124 mingdan ortiq paygʻambar oʻtganligi haqida maʼlumot keltirilib, ulardan Muhammad (s.a.v.) bilan qoʻshib hisoblanganda 25 nafar nabiyalar nomi shu ilohiy kitobda tilga olinadi. Adabiyotshunos U.Qobilovning aniqlashicha, Qurʼoni karimning toʻrtinchi qismi aynan ana shu paygʻambarlar haqidagi qissalarga toʻgʻri keladi²⁸. Oʻzbek adabiyotida ilk bor Oltin Oʻrda adabiy muhiti vakillari tomonidan agiografik (paygʻambarlar tarixiga oid) asarlar yaratila boshlangan. Nosiruddin Burxonuddin oʻgʻli Rabgʻuziyning “Qisasi Rabgʻuziy” (710/ 1310), Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahjul-farodis” (“Jannatlarga ochiq yoʻl” 761/ 1361), Xisom Kotibning “Jumjuma sulton” (1368/69-yillar, boshqa qoʻlyozmada 1375/76-yillar) asarlari buning yorqin namunasi²⁹. “Qisasi Rabgʻuziy”da Muhammad (s.a.v.) bilan birgalikda 22 nafar

²⁸ Қобилов У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини: Фил... фан... док... дисс... автореферати. – Самарқанд. 2019. – Б. 13.

²⁹ Rahmonov N. Oʻzbek adabiyoti tarixi. 226-bet.

payg‘ambar haqida hikoya qilinadi³⁰. Ularning aksariyatiga oid qissalar Qur‘oni karimda keltirilgan.

“Ravzat ush-shuhado” bilan “Kitobi Sayqaliy” matnida tafovutlar mavjud bo‘lsa-da, ular bir-biridan jiddiy farqlanmaydi. Chunonchi, har ikkala manbadagi matn ham “*Bismillohir rohmanir rohim*” ilohiy kalimasidan so‘ng “*Sano ul podshohi lo makona*” satri bilan boshlanuvchi 18 baytli hamd bilan ibtido topgan. Undan so‘ng 20 baytli na‘t, 14 baytli “*Chahoryori bosafolar...*” madhi, 23 baytli munojotdan keyin Odam (a.s.) qissalari bilan asosiy qismga o‘tiladi. “*Kitobi Sayqaliy*”da sarlavhalar ancha ixcham bo‘lib, “*Na‘ti nabiiyi salollohu alayhi vassalam*”, “*Alqobi yoron bu turur*”, “*Munojot*” (3-7-v. كتابی صیقلی) tarzida keltirilgan. “Ravzat ush-shuhado”da asarning qo‘lyozma va toshbosmalari qiyoslanib nashr etilgani bois biz ham mulohazalarimizni asosan shu nashr asosida amalga oshirishga jazm etdik, asarga nisbatan “Qissayi Sayqaliy” nomi kengroq qo‘llangani bois shu nom bilan ish ko‘rishni ma‘qul ko‘rdik.

“Qissayi Sayqaliy” ikki qism, shoir tili bilan aytganda “Ikki kitob”dan tarkib topgan. Uning birinchi kitobi yuqorida keltirilgan 75 baytli an‘anaviy muqaddimadan so‘ng “Kitobi Sayqaliy”dagi sarlavhaga ko‘ra “Qissayi hazrati Odam alayhis-salom” (8-v. كتابی صیقلی) bilan boshlanadi. Shundan so‘ng Nuh (a.s.), Ibrohim (a.s.), Ya‘qub (a.s.), Muso (a.s.) Hazrati Zikriyo va Yahyo (a.s.) qissalaridan so‘ng “Hazrati Rasuli akram sallallohu alayhi va sallamin ajdodlarini bayonidadur” nomli Muhammad (s.a.v.)ga bag‘ishlangan “Qissayi Sayqaliy”dagi eng katta qissa tafsilotlari bilan davom etadi. Payg‘ambar (s.a.v.) vafotlaridan so‘ng, Hazrati Fotimayi Zahroning vafotlari, Hazrati Abu Bakr Siddiq, Hazrati Umar ibni al-Xattob, Hazrati Usmon (r.a.) Hazrati Ali (r.a.), Imom Hasan (r.a.) bilan bog‘liq hikoyatlar shu qissaning mantiqiy davomi sifatida keltirilib, “Birinchi kitob” “*Hazrati Muoviya raziyallohu anhu Yazidni valiahd qilganlari bu turur*” sarlavhali 19 baytli masnaviy bilan yakunlanadi. Unda shoir asosan o‘zining adabiy niyatlarini ifodalab, Shom hokimi Muoviya “*Hasanning kori saranjom*” bo‘lgan so‘ng “*Qilur bo‘ldi Yazidni ul valiahd, Qilib sa‘yi tamomi jiddu bo jahd*” (“RSh”, 351) deya voqea tafsilotlariga ko‘p to‘xtalmasligini ma‘lum qiladi. Shoir “*Deding anda Hasandin qissa aknun, Tushar sayyid Husayng‘a g‘ussa aknun*” (“RSh”, 350) misralarida ifodalangani kabi asarning ikkinchi qismida Karbalo fojeasini yoritishni niyat qilganini bayon qiladi.

“Qissayi Sayqaliy”ning ikkinchi kitobi “*Ki bismillohir rahmonir rohim*”san, *Ahad sansan, Samad sansan, Karimsan*” (“RSh”, 353) misralari bilan boshlanuvchi 39 baytli hamd va munojot mazmunidagi masnaviy bilan ibtido topsa ham, “Birinchi kitob”ning oxirida keltirilgan yuqoridagi satrlar ikkala kitob ham bir asarning asosiy tarkibiy qismlari ekanligini anglatadi. “Ikkinchi kitob” “*Hazrati Muoviya raziyallohu anhu dunyodin o‘tkonlaridin so‘ngra Yazid podshohlig‘ taxtig‘a o‘tirg‘oni. Bay‘at uchun imom Husayng‘a noma yuborg‘oni*” (“RSh”, 355) sarlavhali hikoyat bilan boshlanib, “*Yazidning qorniga kajdumlar*

³⁰ Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. –Тошкент: “Ўзувчи”, 1990, -240 б., Shu muallif, shu nomdagi Ikkinchi kитob. –Тошкент: “Ўзувчи”, 1991, -240 б.

paydo bo'lib, azoblar birla dunyodin o'tkoni" ("RSh, 586") tafsilotlari bilan yakunlanadi.

Tahlillardan ayonlashadiki, Sobir Sayqaliy Husayn Voiz Koshifiyning "Ravzat ush-shuhado" asaridan adabiy ta'sirlanib, o'zbek adabiyotida ilk bor Odam (a.s.), Nuh (a.s.), Ibrohim (a.s.), Ya'qub (a.s.) va Yusuf (a.s.), Muso (a.s.), Ayub (a.s.), Zikriyo va Yahyo (a.s.) qissalari bilan Muhammad (s.a.v.) qissalari va uning mantiqiy davomi bo'lgan Imom Hasanning zaharlanishi, Imom Husaynning Karbaloda fojeali o'ldirilishi voqealari tizimli holatda, o'zaro aloqadorlikda badiiy talqin qilingan qariyb 9000 baytdan tarkib topgan adabiy-tarixiy dostonini yaratgan. Dostondagi voqeyliklarni asosan masnaviyda badiiy ifodalab, 38 g'azal, 7 bandli muxammas, 59 bandli musaddas, 10 bandli muashshar, boshqa shoirlar ijodida kuzatilmaydigan, har bandi 12 misradan tarkib topgan 12 bandli o'ziga xos musammat she'riy shakllari bilan tasvirlanayotgan voqeylikka joziba baxsh etish, payg'ambarlar qissalari bilan Imom Hasanning zaharlanishi, Imom Husaynning Karbaloda fojeali o'ldirilishi voqealari orasida badiiy kashf etilgan o'xshashliklarni tadrijiy rivojlantirishga, ushbu she'riy shakllar vositasida dostondagi dramatismni oshirish maqsadida marsiya bitish, ayriliq iztiroblarini chuqur tasvirlashga erishdi. Shoirning bunday urinishi uning o'ziga xos uslubi sifatida namoyon bo'lib, bularning bari dostonda o'ziga xos kompozitsion birlikni hosil qilish bilan bir qatorda an'anaviy syujetni janriy jihatdan ham, uslubiy jihatdan ham yangidan ishlanishiga muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Ikkinchi fasl "*Shoirning she'riy hikoyanavislikdagi badiiy mahorati*" deb nomlangan. "Qissayi Sayqaliy"ning "Birinchi kitob"ida an'anaviy kirish boblar-u doston sujeti tafsilotlari 124 sarlavha ostida berilsa, "Ikkinchi kitob"dagi shunday sarlavhalar 67 tani tashkil etadi. Bularning har biri katta-kichik boblar holatida talqin qilinsa, doston jami 191 bobdan tarkib topgan bo'ladi. Dostonlardagi voqeyliklarni nasriy sarlavha ostida muayyan boblar holatida taqdim etilishi o'ziga xos an'ana tusini olgan. Sobir Sayqaliy ham ushbu an'anani boshqa dostonlarida kuzatilgani kabi "Qissayi Sayqaliy"da ham davom ettirgan.

Nasrda ifodalangan bob sarlavhalari shu bobda badiiy talqin etiladigan asar sujetining muayyan lavhalari haqida ixcham ma'lumot berishga qaratilganligi bilan ahamiyatli sanaladi. Sarlavhalarning shunday poetik funksiyani bajarishi ular baroati istehlol (baroat – bir sohada ustunlik, istehlol – yangi oyni ko'rish talabi) badiiy san'atining namunasi sifatida namoyon bo'lganidan dalolat beradi. Bobning sarlavhasi sifatida keltirilgan so'z, gaplardan uning mavzusi, mundariyasi yoki asosiy mazmuni anglashilib turadi³¹. Shu bilan bir qatorda shoir yirik hajmli epik asar sujetini o'ziga xos boshlanma, voqealar rivoji va xotima singari ichki bo'linishlardan tarkib topgan hikoyatlar asosida shakllantiradi. Masalan, Muslim ibn Uqaylin haqidagi hikoyat imom Husaynning kufaliklar taklifiga ko'ra uni Kufaga yuborilishi, Ibn Ziyod Yazidning farmoni bilan Kufaga kelganida Muslimning Honiy uyida pinhon bo'lishi, Ibn Ziyod Honiyni keltirib besh yuz qamchi urib o'ldirishi, Muslim kufiylar bilan ittifoq qilib ibni Ziyod qasrini

³¹ Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. –Toshkent: "Akademiknashr", 2020, 488-bet.

muhosara qilishi, Ibn Ziyodning makr bilan kufiylardan qochishi, Muslimning bir vayrona masjidida pinhon bo'lishi, u yerdan chiqib bir parizodaning uyida istirohat qilgani, parizoda o'g'lining Ziyodga xabar berishi, Ibni Ziyod uch yuz kishining yuborishi, Muslimning parizodaning uyidan chiqib ko'p urushlar qilishi, kufiylar Muslimga pand berib uni ibni Ziyod oldiga olib borganlari, ibni Ziyod Muslimni baland ko'shk ustiga chiqarib shahid qilgani singari lavhalar ketma-ketligida dostonida 7 bobda badiiyashtiriladi. Muslim ko'shk ustida qatl qilingandan so'ng uning ikki norasida o'g'illarining ayanchli taqdiri haqidagi hikoyat 5 bobda badiiy ifoda etilib, umumiy sujet bilan bog'liqlik hosil qilinadi. Har ikkala hikoyat ham dostoniga xos ravon va tushunarli uslubda badiiy ifoda etilgani bilan o'quvchi e'tiborini tortadi. Sobir Sayqaliy bir bob holida keltirilgan hikoyatlar ijod etishda ham mahoratli shoir ekanligini "Qissayi Sayqaliy"da dalillashga muvaffaq bo'lgan. "Hazrati Fotima to'yg'a borg'onlari. Qadami muboraklaridin xotunlar doirayi islomga doxil bo'lg'oni" nomli 134 baytli, g'azal shaklida bitilgan ikki baytidan tashqari barchasi masnaviy shaklida ijod etilgan hikoyat fikrimizning dalilidir. Shoirning she'riy hikoyatda musaddas shaklidan foydalanganligi noyob adabiy-estetik hodisa u bu bilan voqeylikni batafsil tasvirlashga, o'zaro muloqotlarga teng o'rin ajratishga, epik tasvirga lirik ruh bag'ishlashga erisha olgan.

Uchinchi fasl "*Shoirning badiiy-tasviriy vositalardan foydalanishdagi badiiy mahorati*" deb nomlangan. Ta'kidlash lozimki, Sobir Sayqaliy ma'rifiy-targ'ibiy xarakterga ega bo'lgan ushbu adabiy-tarixiy dostonini bitishda uning sodda va ravon uslubda, barchaga tushunarli shaklda ijod etishga e'tiborni qaratgan. Shu bois u dostonni badiiy san'atlar bilan bezashda sodda va ravonlikdan chekinmaslikni asosiy maqsad sifatida tanlagan. Shunday bo'lsa-da, ijodkorning shoirlik mahorati "Qissayi Sayqaliy"da ham namoyon bo'lib turgan. Chunonchi, shoir Marvonning so'zi bilan Imom Hasan (r.a.)ni yana zaharlash uchun u zotning xotini Asmo binti Ash'abni yo'ldan urish maqsadida kelgan Savina dallolni ayyor, so'zamol kishi sifatida ko'rsatadi. Savina dallolning tilidan Asmoga qaratilgan quyidagi baytlar bilan boshlanuvchi 10 baytli she'r keltiradi:

*Dedi: "Aytay sanga, ey mehri ofoq,
Hama kavkab yuzing ko'rmoqqa mushtoq.
Ki san mehre, na mehre ko'kg'a timsol,
Anga qayda erur, ko'z, qosh ila xol ["RSh", 337].*

Dastlabki baytda "*mehri ofoq*" – Asmoning istioralashgan obrazi sifatida qo'llanilib, "*hama kavkab*", ya'ni barcha yulduzlar odamlarning istioralashgan timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Bu badiiy timsollar Asmoning boshqalardan ko'ra ko'rkli, sohibjamol ekanini tasvirlashga xizmat qildiriladi. Keyingi baytlarda ruju' badiiy san'atining yetakchilik qilishi kuzatiladi. Ruju' usulining dastlabki ko'rinishlari tashbeh asosida vujudga keladi. Chunonchi, Asmo oldiniga mehr – quyoshga qiyoslanib, qanaqa mehr, sen ko'k timsolisan, deya osmonga o'xshatiladi. Biroq unda ko'z, qosh, xolning yo'qligi aytilib, fikrdan qaytiladi. Baytning ikkinchi misrasida ko'z, qosh, xol singari timsollarning qatorlashib kelishi ta'dilni hosil qilib, ma'noni kuchaytirishga xizmat qildiriladi. Qadini yurib

turuvchi sarvga qiyoslagan shoir boyagi uslubda, qanaqasiga bu sarv bo'lsin, deya gulzordagi gullar sening shaklingni ko'rib, chaman bo'lib ochiladi, deya husni ta'lil san'ati asosida qiyosini chiroyli dalillaydi. Shoir Asmo qoshini hilolga qiyoslaydi-yu, biroq bu shaklning har bir zol – kampirga ham borligidan kelib chiqib qiyosini inkor qiladi. Ko'zini nargisga qiyoslashi xatoligini tezda anglab, bu gulning ko'zi ko'rmasligini sabab sifatida keltiradi. Tilini, ya'ni so'zlashini asaldan totli deya sifatlaydi, biroq uning sendan uyaladigan labi, tili yo'q deya fikridan qaytadi. La'bini la'l, tishini durga qanday qiyoslay, deya ularda shirinlik yo'qligini sabab qilib ko'rsatadi. Kuzatiladiki, shoir ruju' usulidan unumli foydalanib, istiora, tashbeh, sifatlash, husni ta'lil, ta'dil singari badiiy san'atlarga murojaat etadi. Keyinchalik qolgan barcha asobe – barmoqlar, soid – bilaklar seni ko'rmoqqa mushtoq deya bu timsollar vositasida yana istiorani hosil qiladi. Oxirgi baytda *“Yaxshini ko'rmoq uchun maqsad yetarli”* degan maqolni keltirib, baytni irsoli masal badiiy san'ati bilan bezaydi. Ayonlashadiki, bunday tasviriy vositalarni navbat bilan qo'llash asnosida Savina dalloning so'zamolligini, Asmoning esa go'zalligini tasvirlashga muvaffaq bo'ladi.

Sayqaliyning badiiy-tasviriy vositalardan foydalanish mahorati shu tarzda ko'rsatib o'tilgan.

XULOSA

1. Muhammad Sobir Sayqaliyning Qissayi Ibrohim binni Muhammad”, “Qissayi shahzoda Bahrom va Gulandom”, “Qissayi Hamroh va Hurliqo”, “Ravzat ush-shuhado”, “Axtamnoma”, “Vays ul-Qaran”, “Zayn ul-arab” singari asarlarining qo'lyozma va toshbosma holda bizgacha yetib kelganligi uning sermahsul ijod qilgan iste'dodli shoir ekanligidan dalolat beradi. Hasbi holiga oid ma'lumotlariga ko'ra shoir 80 yoshda ham hayot bo'lgan, *“tab'i nazmi fazli Haq”* bo'lsa-da, *“Xirad ustodidin olg'on sabaq”*lar bilan ijodiy salohiyatini oshirib iste'dodli shoir sifatida tanilgan.

2. Sayqaliyning devoni haqida hozirga qadar ma'lumot bo'lmasa-da, uning “Bahrom va Gulandom”, “Qissayi Sayqaliy” dostonlaridan o'rin olgan g'azal, mustazod, noma, muxammas, musaddas, muashshar, har bandi 12 misradan iborat bo'lgan musammat yozish bilan lirik janrlarda ijod etishda ham mahoratini ko'rsata olgan. Shoir g'azallaridagi musajja'da bitilgan baytlar, ularda istiora, tashbeh, sifatlash, tajohuli orif, ta'dil, takrir, mubolag'a singari badiiy san'atlarning qo'llangani, nomalarining ilk misrasida keltirilgan istioraviy nidolar va ularning badiiy san'atlar bilan bezatilganligi, musammatlarining esa hajman kattaligi uning lirik shoir sifatidagi iste'dodidan dalolat beradi.

3. Sobir Sayqaliy “Bahrom va Gulandom”ni *“dostoni ko'hanni toza qil”*ish maqsadida ilk bor uni turkiy tilda an'anaviy sujetni motiv, obraz va ohang jihatdan stilizatsiyalashtirgan holda nazmda 33 katta-kichik bobdan tarkib topgan o'ziga xos kompozitsiyasida, masnaviy uslubi bilan kifoyalanmay, g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, noma, ichki hikoyat singari she'riy shakllardan san'atkorona foydalanib badiiylashtirdi. Obrazlarni yangicha uslubda qayta

ishladi. Shoirning folklarga xos o‘zaro aytishuvlarini esga soluvchi Bahrom va surat, Bahrom va piri Jahongard, Bahrom va Gulandom, Bahrom va otasi singari personajlar orasida kechgan muloqotlarni mumtoz lirik janrlarga xos badiiy shakllarda, Bahrom va Gulandom o‘rtasidagi yozishmalarni she’riy noma shaklida badiiy ifodalashi dostonning o‘ziga xos stilizatsion folklorizm sifatida namoyon bo‘lishini ta’minladi.

4. Dosdonda ijodkorning statik va dinamik portret yaratishda mahoratli ekanligi kuzatiladi. Shoir Bahromning dastlab statik portretini yaratsa, keyinchalik u bilan bevosita aloqaga kirishgan Gulandom, piri Jahongard, Sayfur, uning ukalari, Afro‘ singari devlar; Sarvoso, uning doyasi singari parilar, Behzod zangi, No‘shod bulg‘or, Sherafkan, Shabrang ayyor singari xilma-xil xarakterdagi qahramonlar portretini dinamik yaratishda o‘zaro muloqot va jang lavhalari jarayonini badiiy ifodalash uslubidan foydalanib, mubolag‘aviy manzaralar yaratadi.

5. Gulandom portretini yaratishda shoirning Ruhafso va Sarvoso tavsiflarini qiyosiy qo‘llashi, ularni *“uch guli navrasta”*, *“uch mahi chobuk”*, *“uch huri jannat”* istioralarida birlashtirib, bir necha mushabbihun bihlarni ularga nisbatlash va takrir asosida ma’noni kuchaytirishi, qiyosiy portretlarni musiqiy ohangdorlikni hosil qiluvchi mustazodda badiiy ifodalab, qofiya tanlashda mahorat ko‘rsatishi shoir iste’dodining bir qirrasini sifatida namoyon bo‘ladi. Uning jang lavhalari tasvirida tarsi’ badiiy san’atini hosil qilishi qofiya qo‘llashdagi mahoratidan darak bersa, ba’zan ikfo singari qofiya qusurlarining vujudga keltirishi turkona uslubining samarasi sifatida namoyon bo‘ladi.

6. “Bahrom va Gulandom”dan 319 baytdan tarkib topgan 13 noma o‘rin olgan bo‘lib, ular o‘ziga xos murojaat bilan boshlanuvchi masnaviy va ularga ilova qilingan g‘azaldan tarkib topgan. Masnaviydagi ichki hikoyatlarning tamsiliy mohiyat kasb etishi nomalarga joziba bag‘ishlash bilan bir qatorda sevishganlar holatini aniq namoyon bo‘lishiga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, shoir epik asarlar nomalarning tarafayn yozilishiga alohida e’tibor qaratib, dostonida nomalar tizimini hosil qila olgan.

7. Gulandom nomalardagi istioraviy murojaatda oshiqni mensimaslik kayfiyati ustuvorligi, Bahromda esa samoviy timsollar vositasi Gulandomning mubolag‘aviy tafsiflarining keltirilishi o‘zaro kontrast hosil qilish bilan bir qatorda shoirning noma janrida bitilgan asarlardan ilhomlanganini ko‘rsatadi. Ularda ifodalangan mubolag‘aviy manzaralar, o‘ziga xos tashbeh, talmeh, husni ta’lil va takrirlar shoirning yuksak iste’dod egasi sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlagan. Ayniqsa, nomalarda keltirilgan takrirlar ta’kid ma’nosi bilan bir qatorda o‘ziga xos pand berish mazmunini ifodalashi bilan muhim poetik vazifani bajargan.

8. Sobir Sayqaliy “Kitobi Sayqaliy”, “Ravzat ush-shuhado” singari nomlar bilan ataluvchi “Qissayi Sayqaliy” asari bilan an’anaviy agiografik – payg‘ambarlar tarixiga oid, xususan, Husayn Voiz Koshifiyning “Ravzat ush-shuhado” asaridan adabiy ta’sirlanib, o‘zbek adabiyotida ilk bor Odam (a.s.), Nuh (a.s.), Ibrohim (a.s.), Ya’qub (a.s.) va Yusuf (a.s.), Muso (a.s.), Ayub (a.s.), Zikriyo

va Yahyo (a.s.) qissalari bilan Muhammad (s.a.v.) qissalari va uning mantiqiy davomi bo'lgan Imom Hasanning zaharlanishi, Imom Husaynning Karbaloda fojeali o'ldirilishi voqealarini tizimli holatda, o'zaro aloqadorlikda badiiy talqin qilingan qariyb 9000 baytdan tarkib topgan adabiy-tarixiy dostonini yaratdi.

9. Dostondagi voqeyliklarni asosan masnaviyda badiiy ifodalab, 38 g'azal, 7 bandli muxammas, 59 bandli musaddas, 10 bandli muashshar, boshqa shoirlar ijodida kuzatilmaydigan, har bandi 12 misradan tarkib topgan 12 bandli o'ziga musammat she'riy shakllari bilan tasvirlanayotgan voqeylikka joziba baxsh etish, payg'ambarlar qissalari bilan Imom Hasanning zaharlanishi, Imom Husaynning Karbaloda fojeali o'ldirilishi voqealari orasida badiiy kashf etilgan o'xshashliklarni tadrijiy rivojlantirishga, ushbu she'riy shakllar vositasida dostondagi dramatismni oshirish maqsadida marsiya bitish, ayriliq iztiroblarini chuqur tasvirlashga erishdi. Bularning bari dostonda o'ziga xos kompozitsion birlikni hosil qilish bilan bir qatorda an'anaviy sujetni janriy jihatdan ham, uslubiy jihatdan ham yangidan ishlanishiga muhim omil bo'lib xizmat qildi.

10. Shoir adabiy-tarixiy dostonda payg'ambarlar, Muhammad (s.a.v.) va u zotning atroflaridagi, shuningdek, Imom Hasan va Imom Husayn bilan aloqador voqeyliklarga ishtirok etuvchi o'nlab ijobiy, salbiy va o'ziga xos xarakterga ega bo'lgan obrazlarni tarixiy voqeylikka tayangan holda yaratishga erishdi. Unda Muhammad (s.a.v.)ning Abu Jahl bilan kurash tutishlari, Hazrati Ali (r.a.), Imom Husayn, Qosim singari obrazlarning ko'rsatgan jasoratlari badiiy talqinida (ularning minglab dushmanlarni yanchib tashlashi) mubolag'aviy tasvirlar, badiiy to'qimalardan foydalangan bo'lsa-da, ularni tarixiy haqiqatga tamomila zid kelishiga yo'l qo'ymadi.

11. Sobir Sayqaliy dostonda bir yoki bir necha bob doirasida katta-kichik bir necha hikoyatlar ijod etib, "Qissayi Sayqaliy"ning sujeti tizimliliigi, mukammaligini ta'minlashga erishgan. U o'z hikoyatlarini masnaviy shaklida ijod etganda ham muayyan o'rinlarda sodda va ravon uslubda ifodalangan sujet bayonchiligidan cheklanib, adabiy obraz, adabiy manzara yaratishga e'tiborni qaratgan. Uning bunday yo'l tutishi dostonda badiiy kashfiyot darajasiga ko'tarilgan tashbeh-u istiora va tamsillarning, noyob sifatlashlarni, qiyoslash asosida vujudga kelgan tajohuli orifin badiiy san'atining kamyob namunalarini vujudga keltirishiga omil bo'lgan. Bunday badiiy kashfiyotlarning ta'dil, takrir badiiy san'atlari bilan uyg'unlikda yaratilishi doston sujetiga badiiy zeb bergan.

12. Shoirning she'riy hikoyatda musaddas shaklidan foydalanganligi noyob adabiy-estetik hodisa bo'lib, bu bilan u voqeylikni batafsil tasvirlashga, o'zaro muloqotlarga teng o'rin ajratishga, epik tasvirga lirik ruh bag'ishlashga erisha olgan.

13. Sobir Sayqaliyning adabiy mahorati dostonning turli o'rinlarida muayyan bir adabiy maqsadga erishish uchun baytlar ketma-ketligida o'nlab badiiy san'atlarni navbat bilan qo'llaganida namoyon bo'ladi. Shoir ruju' usuliga murojaat etib, istiora, tashbeh, sifatlash, husni ta'lil, ta'dil, irsoli masal singari tasviriy vositalarni birgalikda qo'llab, mubolag'aviy tasvirlarni hosil qilishga

erishadi. Shoirning istiora, tashbeh badiiy san'atlari vositasida badiiy kashfiyotlar yaratishi, noyob adabiy topilmalarni she'rxonga sodda va ravon uslubda taqdim qilishi, xilma-xil mavzulardagi tamsillarni, iqtibos va irsoli masallarni mahorat bilan fikrni dalillash maqsadida keltirishi uning iste'dodli shoir ekanligidan dalolat beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРОФА
РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

ЖУМАНОВ БЕКТОШ КАРИМОВИЧ

ПОЭТИКА ПОЭЗИИ САЙКАЛИ

10.00.02 – Узбекская литература

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.4.PhD/Fil4057.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете им. Ш. Рашидова. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (www.samdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Мухиддинов Муслихиддин Кутбиддинович доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Жуманазаров Умирзок Абдураззокович доктор филологических наук, профессор Эшонкулов Хусниддин Пиримович доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится «30» апрель 2026 года в 9 часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Fil.09.08 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский проспект, 15. Тел: (8366) 239-11-40, 239-18-92; факс: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz),

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (регистрационный номер 26). (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский проспект, 15. Тел: (8366) 239-11-40, факс: (8366) 239-11-40).

Автореферат диссертации разослан «13» апрель 2026 года (Протокол реестра № 33 от «13» апрель 2026 года).



И.А. Хасанов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.н., профессор

К.А. Каршиев
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.н. (PhD)

У.У. Кобилов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении особое внимание уделяется научному изучению художественных произведений поэтов, которые, создавая стихи в различных жанрах классической лирики, а также поэмы любовно-приключенческого и религиозно-дидактического содержания, опирались на принципы художественности. В подобных произведениях художественное своеобразие, выраженных поэтом божественно-мистических, социально-политических, духовно-просветительских, нравственно-воспитательных взглядов, основанных на его религиозных убеждениях, а также созданные им художественные открытия и редкие литературные находки, обусловленные степенью осмысления классических поэтических принципов, постоянно находятся в центре внимания востоковедов.

В мировой науке о литературе при определении уровня художественного мастерства классических авторов особое внимание уделяется таким вопросам, как социально-политическая и духовно-просветительская действительность эпохи, в которой жил поэт, биографические сведения, нашедшие отражение в его произведениях, художественное воплощение его мировоззренческих и религиозных убеждений, отношение к литературным традициям и их творческое продолжение, а также индивидуальный стиль. Все эти аспекты систематически исследуются на основе поэтических принципов. В этом контексте неизменно сохраняет актуальность научное изучение поэтического мастерства поэта, чьё лирическое наследие, а также поэмы любовно-приключенческого и религиозно-просветительского содержания являются объектом исследования, с точки зрения выявления его способности создавать поэтические произведения в различных жанрах, характеристики и классификации тематического и образного мира его поэзии, а также анализа его умения использовать художественные средства.

С первых лет независимости, рассматриваемой как результат осознания национальной идентичности, особое внимание стало уделяться тому, что важнейшими источниками, на которые опирались наши классические поэты, являются Священный Коран, хадисы и учение суфизма, составляющие основу национальных ценностей. Особенно в условиях Нового Узбекистана, в связи с созданием фундамента Третьего Ренессанса, были открыты широкие возможности для изучения творческого наследия талантливых поэтов XVIII века, таких как Мухаммад Собир Сайкали, который в стихах различных жанров лирики художественно интерпретировал свои религиозные взгляды, создавал любовно-приключенческие, агиографические (посвящённые истории пророков) и религиозно-просветительские поэмы.

Как справедливо отметил уважаемый Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёев «Мы должны уделять особое внимание внедрению в сознание молодёжи бесценного наследия наших великих учёных и писателей, наших святых и праведников, а также героизма и мужества непобедимых

полководцев и государственных деятелей, укрепляя в них чувство национальной гордости и достоинства»³².

Эти жизнеутверждающие мысли подчёркивают важность анализа поэзии Мухаммада Собира Сайкали-Хисорий. Исследование его поэтического наследия с опорой на современные методы анализа приобретает особую научную значимость.

Настоящее диссертационное исследование в некоторой степени направлено на решение задач, определенных Указами Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» (Указ № ПФ-60 от 28 января 2022 года), «О мерах по коренному повышению авторитета и статуса узбекского языка как государственного» (Указ № ПФ-5850 от 21 октября 2019 года), «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» (Указ № ПФ-4947 от 7 февраля 2017 года); «О мерах по широкому продвижению творческого наследия великого поэта и мыслителя Мир Алишера Навои в стране и мире и проведению в Навоийской области “Года Алишера Навои” на высоком уровне» (Постановление № ПП-43 от 9 февраля 2025 года), «О дополнительных мерах по совершенствованию системы сохранения и исследования древних письменных источников» (Указ № УП-126 от 10 февраля 2022 года), «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои» (Постановление № ПП-4865 от 19 октября 2020 года), «О создании фонда «Ижод» при Союзе писателей Узбекистана» (Постановление № ПП-1292 от 26 февраля 2010 года), «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности» (Постановление № ПП-2789 от 17 февраля 2017 года), «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» (Постановление № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года), «О комплексной программе мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и популяризации культуры чтения» (Постановление № ПП-3271 от 13 сентября 2017 года), а также другими нормативно-правовыми актами, связанными с данной сферой деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В мировом литературоведении проблемы религиозно-просветительской и суфийской литературы

³² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги «Тараққиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади» мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси// Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь.

исследовались такими литературоведами и востоковедами, как Х. Риттер, Л. Массиньон, Дж. С. Тримингем, А. Шиммель, А. Зарринкуб, М. А. Джошон и др.³³, при этом данные исследования в основном осуществлялись на материале произведений авторов, писавших на арабском и персидском языках.

Вопросы поэтики и художественного мастерства в монографическом аспекте рассматривались в трудах таких известных учёных, как Аристотель, Шамси Кайс Рази, Атоуллах Хусайний, А. Н. Веселовский, М. М. Бахтин, Л. Г. Пригожина, А. А. Потебня и др.³⁴. В их исследованиях проблемы поэтики изучались в рамках критериев теории литературы.

В узбекском литературоведении в период бывшего союза на примере творчества великого узбекского поэта Алишера Навои вопросы его поэтического мастерства были глубоко исследованы такими учёными, как А. Саъдий, А. Хайитметов, А. Абдугафуров, А. Рустамов, Ё. Исхаков и др.³⁵. Однако суфийская сущность поэзии Навои не была раскрыта в полной мере.

